

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

Ibragimova Komila Uchqunjon qizi

Hamzayeva Saida Gulmurod qizi

Omonkeldiyeva Mahliyo Qodir qizi

Umirova Mahliyo Nabijon qizi

JDPU Logopediya yo'nalishi 2-kurs talabalari

DISLALIYA NUTQ NUQSONINI BARTARAF ETISH METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dislaliyaning turlari, kelib chiqish sabablari, tashxis qo'yish va davolash usullari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, dislaliya muammosini oldini olish va logopedik mashg'ulotlar orqali uni bartaraf etish usullari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Dislaliya, nutq buzilishi, logopediya, artikulyatsiya, nutq terapiyasi, bolalar nutqi, tovush talaffuzi, logopedik mashg'ulotlar, artikulyatsion apparat.

Annotation: This article provides information on the types of dyslalias, their causes, diagnosis, and treatment methods. Methods for preventing dyslalia and its elimination through speech therapy are also covered.

Keywords: dyslalia, speech disorders, speech therapy, articulation, speech therapy, children's speech, sound pronunciation, speech therapy sessions, articulation apparatus.

Dislaliya — nutq buzilishining keng tarqalgan turlari bo'lib, nutq tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilish, tushirib qoldirish yoki ularni almashtirish bilan namoyon bo'ladi. Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis - buzilish, lalia- nutq degan ma'noni anglatadi. bu nutq apparatining nuqsonlari yoki buzilishlari sababli tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish yoki ularni umuman talaffuz qilmaslik holati. Ushbu nutq buzilishi ko'pincha bolalarda uchraydi, ammo ba'zan kattalarda ham kuzatilishi mumkin. Dislaliya, odatda, bolaning rivojlanish jarayonida to'g'ri so'zlash ko'nikmalarini shakllantirishda qiyinchiliklar bo'lishidan kelib Dislaliya nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilikdir. Etiologik belgilarga ko'ra: Dislaliya ikki shaklga bo'linadi: mexanik (organik) dislaliya va funksional dislaliya.

Mexanik (organik) dislaliya periferik nutq apparatining (til , jag', tish, tanglay) organik buzilishi natijasidir. Til tagidagi etning (yumgancha) kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tomon ko'tarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi. Bunday hollarda tog'ri artikulyatsiya qiyinlashadi.

Funksional dislaliyada periferik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi. Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oiladan nutqini noto'g'ri shakllanishidir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga taqlid qiladilar. Bolani suyib u bilan ". Bola tilida" so'zlashadilar. Buning natijasida bolalarda tovushlarning to'g'ri talaffuzi kech rivojlanadi. Dislaliya bolalarda taqlid asosida ham yuzaga kelishi mumkin. Oilada ikki tillilik, pedagogik qarovsizlik ham funksional dislaliyaga sabab bo'ladi. Bunda tovushlarga e'tibor bermaslik, boladagi kamchiliklarni to'g'irlamaslik, to'g'ri va aniq talaffuz namunalarini bermaslik hollari ko'zda tutiladi.

Talaffuzidagi kamchiliklar o'z xarakteriga, ma'lum tovushlar gurppasiga tegishli bo'lishiga ko'ra dislaliya quyidagi turlarga ajratiladi.

1. Sigmatizm (grekcha " sigma" "s" harfining nomini bildiradi). Bunda sirg'aluvchi (s, z) va shovqinli (sh, j , ch) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarning boshqa tovushlarga almashtirilishi parasigmatizm deb yuritiladi. Masalan, soat-"toat", jo'ja - "do'da", choynak- " toynak".

2. Rotatism (grekcha " ro" harfi nomidan olingan bo'lib"r" tovushni bildiradi) - r tovushning talaffuzidagi kamchiliklardir. R tovushini boshqa tovushlar bilan almashtirilishi parrotatism deb yuritiladi. Masalan, raketa-" yaketa", rom- "lom", ruchka- "yuchka".

3. Lambdatsizm (grekcha " lambda " harfini nomidan olingan bo'lib, l tovushini bildiradi) - l tovushining talaffuzidagi kamchiliklardan iborat. L tovushining boshqa tovushlarga almashtirilishi paralambdatsizm deb yuritiladi. Masalan, lola. - "yoya", gul - " guy ".

4. Til orqa tovushlaridagi kamchilikla:

Kappatsizm- k tovushining nutqda yo'qligi, parakatatsizm "k" tovushini almashtirilishi. Masalan, koptok- "topto", kitob -"titob".

Gammatsizm -k tovushining nutqda yo'qligi, parakatatsizm "g" tovushining almashtirilishi. Masalan, gul-"dul", gilam- " dilam",

Xitizm- x. tovushining nutqda yo'qligi, paraxitizm "x" tovushining almashtirilishi. Masalan, xat - "tat", xo'roz, "to'roz".

Yotatsizm - y tovushining nutqda yo'qligi, parayotatsizm "y" tovushining almashtirilishi (grekcha kappa, gamma, xi, yota harflarini nomidan olingan bo'lib, k g x y tovushlarini bildiradi).

5. Jaranglatish nuqsonlari - jarangli undosh tovushlarni talaffuzidagi kamchiliklardir. Bu kamchiliklar jarangli undosh tovushlarni jarangsiz undosh tovushlarga almashtirilishidir: b-p, d-t, v-f, j-z, g-k va boshqalar.

Dislaliyani davolash usullari nutq buzilishlarini to'g'rilashga qaratilgan muolaja va mashqlar majmuasini o'z ichiga oladi. Dislaliya – bu talaffuzning buzilishi bo'lib, u tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish yoki buzib talaffuz qilish shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu muammoni davolash bir nechta yo'nalishda olib boriladi:

1. Logopedik mashqlar va terapiya

Logoped tomonidan maxsus mashqlar amalga oshiriladi:

Artikulyatsiya mashqlari: til, lab va jag'ning harakatchanligini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Fonematik eshitish rivojlantirish: bola yoki kattalarning tovushlarni farqlash qobiliyatini oshirish.

Tovushlarni qo'yish va mustahkamlash: noto'g'ri talaffuz qilinayotgan tovushlarni to'g'ri o'rgatish va nutqda ishlatish.

2. Psixologik yordam

Dislaliya ko‘pincha ruhiy omillar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin, ayniqsa bola o‘z nutqidagi muammolar tufayli qo‘rqoq yoki tortinchoq bo‘lsa. Psixolog bola yoki kattaga o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

3. Massaj va fizioterapiya

Artikulyatsiya organlari massaji: til, lab va yonoq mushaklarini stimulyatsiya qilish.

Nafas olish mashqlari: nutqning ritmi va ohangini yaxshilashga yordam beradi.

4. Uy sharoitidagi mashg‘ulotlar

Bola yoki kattalar uchun o‘yin shaklida mashqlar: tildan burmalar yasash, tilni pastga-tashqariga harakatlantirish va boshqa mashqlar.

Nutqni yaxshilash uchun ertaklar va she‘rlarni o‘qish, ohangni to‘g‘ri tushunish va talaffuz qilishga o‘rgatish.

5. Tibbiy yondashuv

Agar dislaliya anatomik sabablar (masalan, til qisqaligi, tanglayning noto‘g‘ri rivojlanishi) bilan bog‘liq bo‘lsa, jarrohlik aralashuvi yoki ortodontik davolash talab qilinishi mumkin.

6. Ota-onalar ishtiroki

Bolaga kundalik hayotda yordam berish, logopedik tavsiyalarni uyda bajarish va mustahkamlash juda muhimdir.

Dislaliyani davolash individual bo‘lib, har bir bemorning yoshi, nutq buzilishining sababi va turi hisobga olinadi. Shu bois, mutaxassis – logoped yoki defektolog bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Talaffuz buzulishlarini bartaraf etish uchun logopedik ta‘sir lozim. Logopedik ta‘sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to‘g‘ri shakllantirishdir. Logoped bolani tog‘ri talaffuzga o‘rgatishi uchun nihoyatda samarali yo‘l topishi lozim. Talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish muddati bir qancha faktorlarga bog‘liq: nuqsonning murakkablik darajasiga, bolaning yosh va individual xususiyatlariga, mashg‘ulotning muntazamligiga, ota- onalar tomonidan beriladigan yordamga. Oddiy dislaliyada mashg‘ulotlar bir oydan uch oygacha, murakkab dislaliyada esa uch oydan olti oygacha o‘tkaziladi. Maktab yoshidagi bolalarga qaraganda, bog‘cha yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlar qisqa muddat ichida bartaraf etiladi, katta maktab yoshidagi bolalarga qaraganda esa kichik maktab yoshidagi bolalarda tezroq bartaraf etiladi. Logopedik mashg‘ulotlar haftasiga uch marta muntazam ravishda o‘tkaziladi. Ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg‘ulotlar o‘tkazilishi lozim . Mashg‘ulotlarni har kuni (kuniga 2-3 marta) 5 -15 minutdan o‘tkazish lozim.

Xulosa qilib aytganda, dislaliya nutqning to‘g‘ri shakllanishidagi buzilish bo‘lib, bu nutqning fonetik-fonematik jihatlarida xato yuzaga kelishi bilan ifodalanadi. Ushbu buzilish ko‘pincha til, lab, tanglay, tishlar va og‘iz bo‘shlig‘i muskulaturasining nuqsonlari yoki funksional buzilishlari sababli sodir bo‘ladi. Dislaliya, odatda, nutqiy rivojlanishning erta bosqichlarida aniqlanib, davolash yoki logopedik mashg‘ulotlar orqali tuzatiladi. Logopedlar nutq apparati mashqlarini va maxsus texnikalarni qo‘llab, bolalarda to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu

mavzu bo'yicha chuqur o'rganish va tadqiqotlar olib borish nutq buzilishlarini oldini olish va samarali tuzatish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ayupova, M. Logopediya. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2000.
- 2.. Levina, R. E. Nutq nuqsonlarini tuzatish metodikasi. Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
3. Chistyakova, T. V. Nutq rivojlanishidagi buzilishlarni diagnostika qilish va tuzatish. Sankt-Peterburg: Rech', 2005.
4. Umurzakova, G. Nutq terapiyasi asoslari. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2012.